

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI MAKTABGA NUTQIY TAYYORGARLIK KOMPONENTLARI VA ULARNING SHAKLLANISHI

Muxamedova Sug'diyona

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Surdopedagogika yo'nalishi Magistratura 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy tayyorgarlikning mazmuni, asosiy komponentlari hamda ularning bosqichma-bosqich shakllanish jarayoni ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Nutqiy tayyorgarlik eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvida yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Maqolada fonematik eshitish, lug'at boyligi, grammatik tuzilma, bog'langan nutq va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanish xususiyatlari surdopedagogik yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nutqiy tayyorgarlik, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, maktabgacha ta'lim, surdopedagogika.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi bugungi kunda maxsus pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Eshitish analizatorining yetarli darajada faol bo'lmashligi bolaning nutqiy rivojlanishiga, so'z boyligi va grammatik tuzilmaning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bunday bolalarda nutqiy tayyorgarlikni erta yoshdan boshlab tizimli va bosqichli tashkil etish zarur. Nutqiy tayyorgarlik eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nafaqat nutqni rivojlantirish, balki ularning bilish faoliyati, muloqotga kirishish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Surdopedagogika nuqtayi nazaridan nutqiy tayyorgarlik – bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning og'zaki nutqni idrok etish, vizual va artikulyatsion tayanchlar asosida nutq birliklarini o'zlashtirish hamda ularni muloqot jarayonida ongli ravishda qo'llay olishga tayyorlik darajasidir. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlash pedagogik va ijtimoiy jihatdan muhim zarurat hisoblanadi. Nutq maktab ta'limida bilimlarni o'zlashtirishning asosiy vositasi bo'lib, barcha fanlarni o'rganish jarayoni og'zaki va yozma nutqqa tayanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda esa nutqning tabiiy rivojlanishi cheklangan bo'ladi, lug'at boyligi kam, talaffuz va grammatik tuzilmalarda qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu sababli maktabgacha davrda maxsus nutqiy tayyorlash ishlari olib borilmasa, bola maktabdagi ta'lim jarayonini to'liq idrok etishda qator muammolarga duch keladi.

Nutqiy tayyorlash bolani o'qish va yozishga tayyorlashda muhim



poydevor vazifasini bajaradi. Bu jarayonda fonematik eshitish, tovush va harf o'rtasidagi bog'lanish, so'zlarni idrok etish va ularni ongli ravishda qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda mazkur ko'nikmalar o'z-o'zidan rivojlanmaydi, balki surdopedagogik va logopedik yondashuvlar asosida bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Nutqiy tayyorgarlik mavjud bo'lmaganda, o'qish va yozishni o'zlashtirish jarayoni murakkablashadi va ta'lim samaradorligi pasayadi. Bundan tashqari, nutqiy tayyorlash bolaning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Nutqi yetarlicha rivojlanmagan bola tengdoshlari va o'qituvchi bilan muloqotga kirishishda qiyinchilikka duch keladi, bu esa uning maktab muhitiga moslashuvini sekinlashtiradi. Nutqiy tayyorlash orqali bola savol berish, javob qaytarish, o'z fikrini ifodalash va muloqot jarayonida faol ishtirok etish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va psixologik jihatdan barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Nutq tafakkur bilan uzviy bog'liq bo'lib, nutqiy tayyorlash bilish jarayonlarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, fikrlash, xotira, diqqat va tasavvur nutqiy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy rivojlanish yetarli darajada ta'minlanmasa, bilish faoliyati ham sust kechadi, bu esa maktab ta'limida muvaffaqiyatga erishishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, maktabgacha davrda olib borilgan nutqiy tayyorlash ishlari bolaning maktabga moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Nutqiy jihatdan tayyor bo'lgan bola dars jarayonini tushunadi, topshiriqlarni bajaradi va o'qituvchi ko'rsatmalariga mos ravishda harakat qiladi. Bu holat uning ta'limdagi muvaffaqiyatini oshirib, maktabga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik eshitish va idrok nutqiy rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Fonematik eshitish deganda nutq tovushlarini eshitib ajrata olish, ularning farqli belgilarini anglash va ma'noli birlik sifatida qabul qilish qobiliyati tushuniladi. Fonematik idrok esa ushbu tovushlarni ongli ravishda tushunish, tanish va nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olish bilan bog'liq bo'lib, u bolaning og'zaki va yozma nutqni egallashida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda fonematik eshitishning shakllanishi tabiiy ravishda cheklangan bo'ladi. Eshituv analizatorining yetarli darajada faol bo'lmasligi natijasida bola nutq tovushlarini to'liq eshita olmaydi, ularni bir-biridan farqlashda qiyinchilikka duch keladi. Bu holat tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni buzib aytish va lug'at boyligining sust rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, fonematik idrokning yetarli darajada shakllanmaganligi bolaning o'qish va yozishni o'rganish jarayonida jiddiy muammolar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Maktabgacha yosh davrida fonematik eshitish va idrokni shakllantirish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ayniqsa muhimdir. Chunki aynan ushbu davrda nutq tizimi faol rivojlanadi va tuzatish-ta'limiy ta'sirlar eng samarali natija beradi. Fonematik



eshitishni rivojlantirish jarayoni maxsus surdopedagogik va logopedik yondashuvlar asosida olib boriladi. Bu jarayonda tovushlarni bo'g'inlab talaffuz qilish, vizual tayanchlardan (lab harakati, mimika), taktil sezgilardan va ko'rgazmali vositalardan keng foydalaniladi. Fonematik idrokni rivojlantirish bolalarda nutqni eshitib tushunish, tovushlar ketma-ketligini anglash va so'z ma'nosini to'g'ri idrok etishga yordam beradi. Rasm, predmet va harakatlar bilan bog'langan tovush mashqlari orqali bola tovushni ma'lum ma'no bilan bog'lashni o'rganadi. Bu esa nutqni ongli ravishda qabul qilish va nutqiy faoliyatda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda lug'at boyligi nutqiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Lug'at boyligi bolaning atrof-muhitni idrok etishi, predmet va hodisalarni nomlash, o'z fikrini ifodalash hamda muloqotga kirishish imkoniyatlarini belgilaydi. Eshitish analizatorining yetarli darajada faol bo'lmasligi sababli bunday bolalarda so'zlarni eshitib o'zlashtirish jarayoni cheklangan bo'ladi, natijada lug'at boyligi sekin shakllanadi va ko'pincha kam hajmda namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda asosan passiv lug'at faol lug'atdan ustunlik qiladi. Bola ko'plab so'zlarning ma'nosini tushunsa-da, ularni nutq jarayonida faol qo'llay olmaydi. Bu holat so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar, fonematik idrokning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda nutqiy tajribaning kamligi bilan izohlanadi. Lug'at boyligining cheklanganligi bolaning gap tuzish, bog'langan nutqni rivojlantirish va muloqotda erkin ishtirok etish imkoniyatlarini pasaytiradi. Lug'at boyligini shakllantirish jarayoni maktabgacha davrda tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik ishlarni talab etadi. Bu jarayonda avvalo bolaning kundalik hayotida tez-tez uchraydigan predmetlar, harakatlar va belgilarni ifodalovchi so'zlar o'rgatiladi. So'zlar rasm, predmet, harakat va vaziyatlar bilan bog'lab tushuntiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda vizual tayanchlar, imo-ishoralar, mimika va artikulyatsion ko'rsatmalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular so'z ma'nosini to'g'ri idrok etishga yordam beradi. Lug'at boyligini rivojlantirishda so'zlarni takrorlash, ularni turli vaziyatlarda qo'llash va nutqiy mashqlar orqali mustahkamlash muhim hisoblanadi. O'yin faoliyati, rasm asosida suhbat, predmetli harakatlar va kichik hikoyalar tuzish orqali bola yangi so'zlarni faol lug'atiga kiritadi. Shu bilan birga, lug'at boyligini kengaytirish grammatik tuzilmaning rivojlanishi va bog'langan nutqni shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish nutqiy tayyorgarlikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jarayonning erta boshlanishi, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi bolaning nutqiy faolligini oshiradi, muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi hamda uni maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlashga xizmat qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda grammatik tuzilmaning shakllanishi,



bog'langan nutq va kommunikativ ko'nikmalar nutqiy rivojlanishning o'zaro uzviy bog'liq va muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Eshitish analizatorining yetarli darajada faol bo'lmashligi natijasida bunday bolalarda grammatik shakllarni eshitib o'zlashtirish imkoniyati cheklangan bo'ladi, bu esa nutqda grammatik xatolar, so'z tartibining buzilishi va gap tuzishda qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu bois grammatik tuzilmani shakllantirish maxsus pedagogik yondashuv asosida, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishini talab etadi.

Maktabgacha yosh davrida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda avvalo oddiy grammatik shakllar, ya'ni so'zlarni to'g'ri bog'lash, birlik va ko'plik shakllaridan foydalanish, sodda gaplar tuzish ko'nikmalari rivojlantiriladi. So'z tartibini to'g'ri qo'llash, fe'l va otlarning moslashuvi, kelishik va zamon shakllarini anglash jarayoni ko'rgazmali vositalar, rasm va predmetlar asosida olib boriladi. Grammatik tuzilmaning shakllanishi bolaning fikrini aniq va tushunarli ifoda etishiga xizmat qilib, nutqning mazmunan boy bo'lishini ta'minlaydi. Grammatik tuzilmaning rivojlanishi bog'langan nutqning shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bog'langan nutq bolaning voqea-hodisalarni izchil bayon etishi, rasm yoki vaziyat asosida hikoya tuzishi, o'z fikrini ketma-ket va mantiqiy tarzda ifoda etish qobiliyatini anglatadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bog'langan nutq ko'pincha qisqa, grammatik jihatdan to'liq bo'lmagan gaplar bilan cheklanadi. Shu sababli rasm asosida hikoya tuzish, matnni qayta aytish, savol-javoblar orqali nutqni kengaytirish mashqlari bog'langan nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bog'langan nutqning shakllanishi kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kommunikativ ko'nikmalar bolaning muloqotga kirishish, savol berish, javob qaytarish, suhbatdoshi bilan o'zaro tushunish asosida muloqot olib borish qobiliyatlarini qamrab oladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bu ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, ular muloqotdan chekinishi, o'z fikrini ifodalashda passivlik ko'rsatishi mumkin. Nutqiy mashg'ulotlar jarayonida dialogik nutqni rivojlantirish, rolli o'yinlar va kundalik vaziyatlar asosida muloqotni tashkil etish kommunikativ faollikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy tayyorgarlik komponentlarini bosqichma-bosqich va tizimli shakllantirish ularning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Nutqiy rivojlanish jarayonida surdopedagogik, logopedik va psixologik yondashuvlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlarning o'zaro uyg'un va tizimli ravishda tashkil etilishi maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlash ta'limiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan muvaffaqiyatli kirishishi, bilimlarni samarali o'zlashtirishi va jamiyatda to'laqonli shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мастюкова Е.М. Развитие речи дошкольников с нарушением слуха. – М.: Просвещение, 2002.
2. Лалаева Р.И. Логопедическая работа с детьми дошкольного возраста. – СПб.: Союз, 2005.
3. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Подготовка к школе детей с недостатками речи. – М.: Просвещение, 2010.
4. Ушакова О.С. Развитие речи детей дошкольного возраста. – М.: Владос, 2014.
5. Mamarajabova Z. N. Korreksion pedagogika: eshitishida nuqsoni bor o'quvchilarning nutqini rivojlantirishning pedagogik tizimi

